

## O'ZBEK TILIDAGI MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK ASOSLARI

Shukurova Sevara Sodiqovna

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18154489>

### KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Har bir xalqning tili – uning tarixiy xotirasining, madaniy merosining va milliy o'zligining ko'zgusi hisoblanadi. Tilning paremiologik fondi, jumladan, maqollar xalq donishmandligining, asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribalarning qimmatli ifodasidir. O'zbek xalqi o'zining boy adabiy merosi, qadimiy madaniyati va chuqur falsafiy qarashlari bilan ajralib turadi.

Bu qadriyatlarning aksariyati maqol va iboralarda o'z aksini topgan. Zamonaviy tilshunoslikda til birliklari nafaqat strukturaviy-grammatik, balki kognitiv va madaniy jihatdan ham o'rganilmoqda. Lingvokulturologiya – til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq etuvchi nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, u til birliklarida aks etgan milliy dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va mentalitetni ochib berishga qaratilgan.

O'zbek tilshunosligida maqollarning lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Chunki bu tadqiqotlar orqali milliy madaniyatning chuqur qatlamlarini ochish, avlodlar o'rtasida ma'naviy ko'priklarni o'rnatish va tilimizning boy imkoniyatlarini yanada samarali qo'llash yo'llari aniqlanadi.

**Tadqiqotning maqsadi** o'zbek tilidagi maqollarning lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlash, ularda aks etgan milliy dunyoqarash, madaniy qadriyatlar va etalon tushunchalarni tahlil qilishdan iborat.

### Tadqiqotning vazifalari:

- O'zbek xalq maqollarida aks etgan milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlash;
- Maqollardagi etalon so'zlar, ramziy obrazlar va metaforik ifodalarni tahlil qilish;
- Lingvomadaniy birliklarning semantik strukturasi ochib berish;
- O'zbek xalqining mehmondo'stlik, qo'shniçilik, oilaparvarlik kabi milliy xususiyatlarining til birliklarida namoyon bo'lishini ko'rsatish;
- Maqollarda aks etgan diniy e'tiqod va urf-odatlarini lingvokulturologik nuqtai nazardan yoritish.

**Tadqiqot ob'ekti** – o'zbek tilidagi maqollar.

**Tadqiqot predmeti** maqollarda aks etgan lingvokulturologik xususiyatlar, etalon so'zlar va milliy-madaniy komponentlardir.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqot jarayonida bir-birini to'ldirib boruvchi kompleks metodlardan foydalanildi. Tavsifiy metod yordamida o'zbek xalq maqollaridagi konseptlarni ifodalovchi leksik birliklar to'plandi, ularning shakli, mazmuni va qo'llanish xususiyatlari tavsiflandi.

Lingvokulturologik tahlil orqali maqollardagi leksik birliklarning milliy-madaniy semantikasi, etalon so'zlar va ramziy obrazlar aniqlandi. Semantik va komponent tahlil metodlari yordamida leksik birliklarning ma'no strukturasi, asosiy va ko'chma ma'nolari, semantik komponentlari hamda yashirin mazmuni ochib berildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** o'zbek xalq maqollari va frazeologizmlarining lingvokulturologik tadqiqida etalon so'zlarning milliy dunyoqarash shakllanishidagi o'zni kompleks yoritilishi, diniy e'tiqod va urf-odatlarining til birliklari orqali ifoda etilish mexanizmlarining aniqlashtirilishida namoyon bo'ladi.

**Mavzuning o'rganilishi:** Xorijiy tilshunoslikda V.V. Vinogradov frazeologizmlarni milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi birliklar sifatida baholagan. F.I. Buslayev esa frazeologizmlar va maqollarni millat ruhini ifodalovchi hikmatli birliklar deb hisoblagan.

Lingvokulturologiyaning nazariy asoslari V.N. Teliya, Yu.S. Stepanov, N.D. Arutyunova, E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarov tadqiqotlarida chuqur yoritilgan bo'lib, ularda til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslab berilgan.

O'zbek tilshunosligida T. Mirzayev, N. Mahmudov, A. Nurmonov, Sh. Rahmatullayev, E. Begmatov, A. Hojiyev kabi olimlar maqol va frazeologizmlarning milliy-madaniy mohiyatini tadqiq etib, muhim ilmiy manbalarni yaratganlar. Zamonaviy o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya va konseptologiya yo'nalishlari M. Mahkamova, G. Shodmonova, Z. Abdullayeva tadqiqotlarida o'rganilgan.

### MUHOKAMA

O'zbek xalq maqollarida etalon vazifasini bajaruvchi so'zlar alohida o'rin tutadi. Ular milliy dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va madaniy kodlarning tashuvchilari hisoblanadi. Tahlil natijasida "non", "do'ppi", "beshik", "holva", "hashar", "belbog'", "doka ro'mol" kabi birliklar o'zbek xalqining madaniy xotirasida etalon vazifasini bajaruvchi lingvomadaniy birliklar sifatida faol ishtirok etishi aniqlashtirildi.

"Non" – o'zbek madaniyatida eng muqaddas va ulug'langan tushuncha. Dunyoda o'zbekchalik nonga yuksak hurmatda bo'lgan xalq bo'lmasa kerak. Ulug'larimiz ham "Nonday aziz bo'lg'in" deb duo qilishadi. Farzandlarga yoshligidan "Nonni ushatmay ye", "Nonni bosma", "Nonni ko'zingga sur" deya tarbiya berishadi.

Bularning barchasi xalqimizda nonga bo'lgan e'tibor, o'zbekona qarashdan darak beradi.

*"Bug'doy noning bo'lmasa ham bug'doy so'zing bo'lsin"* maqolida bug'doy so'zi o'zbek xalq madaniyatini o'zida aks ettirgan etalon sifatida kelgan. *"Non ham non, ushog'i ham non"* maqolida xalqimizda nonga bo'lgan e'tibor, o'zbekona qarash yaqqol namoyon bo'ladi.

"Do'ppi" – o'zbek xalqining milliy bosh kiyimi. *"Bosh omon bo'lsa do'ppi topilar"* maqolida inson yaxshi va yorug' kunlarga sog'lik, tinchlik-xotirjamlik, omonlik bo'lsagina erishishi mumkinligi ma'nosi ifodalangan. Bosh kiyim sifatida bu yerda qalpoq, shapka, shlyapa so'zlari emas, do'ppi so'zi keltirilgan. Ma'lumki, do'ppi o'zbek xalqining milliy bosh kiyimi sanaladi. *"Do'ppining ichida odam bor"* maqoli mazmunan "Devorning ham qulog'i bor" maqoliga o'zaro sinonim hisoblanadi. Bunda ham etalon sifatida do'ppi so'zi olingan.

"Beshik" – o'zbek tilida beshik so'zi muqaddas. Chunki, yangi tug'ilgan chaqaloqni turli odat-u irimlari bilan beshikka yotqizishadi. Tom ma'noda aytganda, beshik deganda o'zbeklar vatanini tushunadi. *"Ona yurtning – oltin beshiking"* maqolida bu so'z milliy ruh bilan sug'orilgan bo'lib, lingvomadaniy birlik hisoblanadi.

O'zbek xalqiga xos bo'lgan eng oliy xususiyatlardan biri ahillik, inoqlikdir. Bu bizga ajdodlarimizdan singan fazilatdir.

"Bir mayizni qirq kishi bo'lib yeydi" maqoli bir mayizni qirqqa bo'lib yeyishlik, o'zi yemay o'zgaga ilinishlik xalqimizga xos bo'lgan insoniy fazilatlarga ishora qiladi.

"Yaxshi mehmon osh ustida" maqoli azal-azaldan mavjud bo'lib, zamirida o'zbek xalqiga xos bo'lgan holat aks ettirilgan. Oila dasturxon atrofida to'planib o'tirgan paytda kimdir kelib qolsa, unga qarata "Yaxshi mehmon osh ustida", "Yaxshi kishi osh ustida keladi" kabi maqollarni qo'llaymiz. Bunday holat o'sha insonning yaxshi fazilatli ekanligidan dalolat beradi.

Andijon shahrida mehmon kelgan xonadonga hurmat yuzasidan qo'shnilar dasturxon chiqazishadi. Shuningdek, o'zbek xonadonlarida qo'shnilar o'rtadagi devorning biror yeridan teshik ochib qo'yishadi. Bu teshik orqali bir-birlaridan hol-ahvol so'rashadi, tansiq ovqat qilganlarida biron idishda shu ovqatdan uzatishadi. "Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan" maqoli ana shu odatning ta'siri tufayli yuzaga kelgan.

"Yon qo'shnim – jon qo'shnim" maqolida o'zbeklarda qo'shniga azal-azaldan katta e'tibor va hurmat qaralgan. "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" kabi maqollarning ham kelib chiqishi mana shunday hurmat va e'tiborning natijasidir.

O'zbek xalqining to'yi hech bir xalqda takrorlanmas urf-odatlariga boydir. Ayniqsa, nikoh to'ylari o'zgacha shukuh bilan o'tadi. "Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r" maqoli o'zbek xalqida qizga, ya'ni bo'lajak kelinra sep, sarpo-surug' qilish odatining katta ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Kelinning sepi uning ziynati, fayzi sanaladi.

"Oyoq bosish" o'zbek xalq odati ham bor. Kelin-kuyov ilk bor chimildiqqa kirganda oyoq bosish odati amalga oshiriladi. Taomilga ko'ra kim kimning oyog'ini birinchi bo'lib bossa, qurilayotgan oila, ro'zg'orga o'sha bosh bo'ladi, deyishadi. Musulmonchilik – o'zbekchilikda yigit oilaga bosh bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ham kelin nazokat bilan, kuyoviga oyoq bostirar ekan, so'ng irimiga o'zi ham beginning oyog'ini bosgan bo'ladi.

"Er-xotinning urushi – doka ro'molning qurishi" maqolida oila muqaddas dargoh sifatida e'zozlanadi. Lekin mana shu muqaddas dargohda ham ba'zan ahamiyatga molik bo'lmagan janjallar uchrab turishi hech birimizga sir emas. Ushbu maqolda etalon sifatida olingan doka ro'mol ham milliy kiyimlarimizning tarkibiy qismi bo'lgan bosh kiyim hisoblanadi.

## XULOSA

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek xalq maqollari va frazeologizmlari millatning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, diniy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy qadriyatlarini mujassamlashtirgan barqaror til birliklari hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida maqollar va iboralarda qo'llangan leksik birliklar nafaqat nominativ ma'noda, balki chuqur madaniy, ramziy va konseptual mazmun yuklagani aniqlandi.

### Tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelingan:

1. **Etalon so'zlar tizimi.** "Non", "do'ppi", "beshik", "holva", "hashar", "belbog'", "doka ro'mol" kabi birliklar o'zbek xalqining madaniy xotirasida etalon vazifasini bajaruvchi lingvomadaniy birliklar sifatida faol ishtirok etishi aniqlashtirildi. Ushbu birliklar orqali xalqning mehmondo'stlik, ahillik, qo'shnichilik, oilaparvarlik kabi asosiy milliy qadriyatlari ifodalanadi.

2. **Milliy dunyoqarashning aks etishi.** Maqollar o'zbek xalqining hayotga bo'lgan munosabatini, dunyo haqidagi tasavvurlarini, ijtimoiy-maishiy turmushini, psixologik xususiyatlarini to'liq aks ettiradi. Ular xalq falsafasining qisqacha ifodasidir.

3. **Qo'shnichilik va jamoatchilik ruhi.** "Yetti mahalla ota-ona", "yon qo'shning – jon qo'shning", "hashar" tushunchalari o'zbek xalqining ijtimoiy hayotdagi ahilligi, o'zaro yordam va birdamligining tilga singganligidan dalolat beradi.

4. **Mehnatsevarlik va halollik qadriyatlari.** Dangaslik, tayvorga ayyorlikni qoralovchi, aksincha, halol mehnat va mashaqqatga undovchi maqol va iboralar xalq tarbiyasida muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq maqollari xalq donishmandligining, asrlar davomida to'plangan tajribaning ifodasi bo'lib, milliy madaniyat, qadriyatlar tizimi va dunyoqarashning til orqali namoyon bo'lishining yorqin namunalaridir. Ular nafaqat badiiy va estetik qiymatga ega, balki ilmiy-nazariy jihatdan ham muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi. Lingvokulturologik yondashuv asosida olib borilgan tadqiqot o'zbek tilining boy imkoniyatlari va milliy xususiyatlarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Fan, 2013. – 320 b.
2. Begmatov E. O'zbek tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 184 b.
3. Mahkamova M. O'zbek tilida konsept tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2018. – 256 b.
4. Abdullayeva Z. O'zbek tilida konsept va uning lingvokulturologik talqini // Til va adabiyot ta'limi. – 2020. – №4. – B. 28-35.
5. Yoqubov Q. O'zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 2005. – 198 b.
6. Vereshchagin E.M., Kostomarov V.G. Yazyk i kultura. – Moskva: Russkiy yazyk, 1990. – 246 s.
7. Stepanov Yu.S. Konstanty: Slovar russkoy kultury. – Moskva: Akademicheskij proekt, 2001. – 990 s.
8. G'ulomov A. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1977. – 248 b.